

**BOSHLANG’ICH SINFLARDA CHET (INGLIZ ) TILI O’QITISHNING O’ZIGA XOS MUAMMOLARI**

**N.O Yoqubova**  
**Andijon shahar pedagogika kolleji**  
**Umumkasbiy**  
**fanlar kafedrası Oliy toifali o’qituvchi**

**Annotasiya:** Bugungi zamonaviy ta’lim tizimida chet tillarini, xususan ingliz tilini o’rganish ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. Shu bois ham ushbu maqola ingliz tilini boshlang’ich sinflarga o’qitishda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari mavzusiga bag’ishlangan. Ingliz tilini boshlang’ich sinf o’quvchilariga innovatsion metodlar va zamonaviy texnologiyalar vositasida turli interfaol psixologik o’yinlar yordamida qiziqarli tarzda o’qitish usullari ham yoritilgan. Shuningdek, maqolada olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar natijasida ingliz tilini chet tili sifatida kichik yoshdagi o’quvchilariga o’qitishning intensiv yo’nalishlari, hamda metodik tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** o’rganish usuli, interfaol, intellektual-psixologik o’yinlar, yangi so’z va iboralarni o’qitish, yozma mashlar, og’zaki muloqot

Barchamizga ma’lumki mustaqilligimizning keyingi yillarida chet tili o’qitishga bo’lgan talab sezilarli darajada ortib bormoqda. Ayniqsa, Prezidentimizning 2012-yil dekabr oyidagi chet tilini o’qitishning yanada takomillashtirishga oid qarori e’lon qilingandan so’ng bu borada keskin burilish bo’ldi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Prezidentimizning qaroriga ko’ra chet tillarini o’qitishni birinchi sinfdanoq boshlash yo’lga qo’yildi. Endi chet tilini o’qitishda boshqacha talab, yangicha yondashuv, shuningdek yosh bolalarning ruhiyatidan kelib chiqqan holda yangi texnologiya va uslub yaratish zaruriyati tug’ildi. Dastlab yangi, mukammal darslik yaratish va darslikka oid ko’rgazmali qurollar ishlab chiqish ustida dasturlar ishlab chiqildi. Eng muhimi chet tili ona tili bo’lmaganligidan quyi sinf o’quvchilarining zeriktirib qo’ymaydigan o’yinli darslar o’tilishi yo’lga qo’yildi. Albatta bu ishlar birdaniga amalga oshirilgani yo’q. Dastavval, yaratilgan darslik ayrim belgilangan joylarda tajribalar o’tkazildi va kamchiliklar aniqlanib tegishli xulosalar qilindi.

Boshlang’ich sinflar uchun mo’ljallangan chet tili mashg’uloti o’quvchilarda o’rganilayotgan tilga nisbatan qiziqish uyg’otishi hamda ularni yangi notanish tilda muloqot qilishga chorlashi lozim. Mashg’ulotlarni uzluksiz olib borilishi va o’rgatilayotgan so’zlarni o’yinlar vositasida muntazam takrorlab borish maqsadga muvofiqdir. Bola ta’lim olayotgan muhitda o’zini erkin, ya’ni qo’rquv va bosimdan holi his etsa, bolalarcha qiziquvchanligi tufayli o’quv jarayonidagi ishtiroki yanada faollashadi. Mavzularni o’yin tarzida yetkazib berish uchun harakat va ijodkorlikka yetaklovchi, tanqidiy fikrlashga undaydigan, intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan, bolaning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishga keng imkoniyatlar beradigan harakatli o’yinlar va jismoniy mashqlarga yo’naltirilgan mashg’ulotlarni olib borish, mashg’ulotlarda esa bir xillikdan qochish lozim. Turli interfaol va intellektual-psixologik o’yinlardan foydalanish orqali bolalarning qiziqish darajasini kengaytirish darkor. Mashg’ulotlarda sifatli va zamon talabiga javob beradigan darajadagi innovatsion metod va ko’rgazmali qurollardan foydalanish mashg’ulotni muvafaqqiyatli tashkil etishdagi birinchi qadamdir. O’qituvchilar bolalarning ishtiroki bo’yicha ijobiy fikr bildirishi, ya’ni rag’batlantirishi zarur va shartdir. Rag’batlantirish bolani o’ziga bo’lgan ishonchini yanada kuchaytiradi. Undagi ijobiy qobiliyat va fazilatlarini yuzaga kelishida turtki bo’ladi. Og’zaki nutq jarayonida esa bolalarning nutqini bo’lmasdan, nutq

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

yakunlanganidan so’ng xato va kamchiliklar xushmuomalalik bilan tushuntirilishi va tuzatilishi lozim.

Birinchi sinflarda chet tilini o’qitishni yo’lga qo’yilishi eng muhim qadamlardan bo’lib hisoblanadi, quyi sinflarda chet tilini o’qitishning yangicha usulda o’qitish ham asosiy muammolardan biridir. Chunki mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq barcha sohalarda bo’lgani kabi chet tillarini o’qitishda ham islohotlar o’tkazilib kelindi. Avvalgi eskicha usulda dars o’tish hozirgi davr zukko bolalarga to’g’ri kelmay qoldi. Bugungi kunda o’quvchilarga chet tilini o’qitishda ko’proq ingliz tili grammatikasiga etibor berilar edi. Dars davomida ko’proq yozma mashqlar bajarilib og’zaki muloqotga kam e’tibor berilar edi. Bundan tashqari har bir darsga mo’ljallangan leksikumga mo’ljallangan mashqlar juda oz berilar edi. Bundan tashqari o’quvchilarni ruhiy holatlarini hisobga oluvchi usullar to’g’risida gapirilmadi.

Hozirgi paytda esa o’quvchilarni xarakterini hisobga olgan holda qo’llanuvchi Auditory, Visual, Kinesthetic, Individual, Group learning kabi usullar mavjud bo’lib, bu usullar auditoriyadagi o’quvchilarni xarakterini hisobga olgan holda qo’llaniladi. Agar bir sinfda ba’zi bolalar eshitib o’rganishni ko’proq afzal ko’rishsa, bunday o’quvchilarni eshitib o’rganish usulini qo’llash yaxshi samara beradi. Shuningdek o’quvchi ko’rish orqali yaxshiroq tushunsa, bunday xarakterli o’quvchilarga Visual o’rganish usulidan foydalanish to’g’ri yondashuv bo’ladi.

Chet tilini o’qitishdagi yangi so’z va iboralarni o’qitish ham muhim rol o’ynaydi. Ilgari an’anaviy usulda yangi so’zlarni o’qitishda so’zlar yozuv taxtasiga yozilib, ularning tarjimalari o’qituvchi tomonidan aytib berilar edi va o’quvchilardan ular asosida gaplar tuzishlari talab etilar edi. Hozirda bu usul hech qanday samara bermaydi. Dars davomida yangi so’zlarni tarjimasiz yozuv taxtasiga yozganidan so’ng o’qituvchi ularni qanday ma’no anglatishini ingliz tilida tushuntiradi. Shuningdek past o’zlashtiruvchi o’quvchilarni imkoniyatlarini hisobga olgan holda rasmlardan foydalanib tushuntirishi kerak. Shundagina past o’zlashtiruvchi o’quvchilarga ham tushunarli bo’ladi. Odatda past o’zlashtiruvchi o’quvchilarni darsga jalb qilish qiyinroq kechadi. Ularga tushunarli bo’lishi uchun berilgan yoki yangi o’zlashtirilgan so’zni ishlatib, muloqot qilish darsdagi faol o’quvchilar bilan bajarilib so’ngra past o’zlashtiruvchi o’quvchilar bilan ham amalga oshirilishi kerak. Shundagina yangi leksika ustidagi ishlash deyarli barchaga barobar samara beradi. Shuningdek, boshlang’ich sinfdagi bolalarga so’zlarni to’g’ri talaffuz ettirish muammosi ham ko’ldalang turadi. Bu borada o’quvchilarga tovushlarni alohida tushuntirish xuddi yuqori sinflarda bo’lgani kabi yaxshi samara bermaydi. Bunday holatlarda so’zlarni to’g’ri talaffuz etishda o’qituvchi o’rnak bo’lishi yoki so’zlarning to’g’ri talaffuzi yozib olingan yozuv eshittirilishi to’g’ri bo’ladi, deb o’ylayman.

Darhaqiqat, jadal rivojlanayotgan bugungi kunda chet tillarni o’qitish va o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang’ich sinflarda o’quvchilarning chet tillari bo’yicha fundamental bilimga ega bo’lishi yosh avlodning kelajakda chet tillarini mukammal o’rganishidagi poydevor hisoblanadi. O’qituvchining kasbiy kompetentligi, bolalar psixologiyasidan xabardorligi hamda innovatsion axborot texnologiyalari va multimedia vositalarini puxta bilishi boshlang’ich sinflardagi ta’limning sifati va samaradorligini kafolatlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli Qarori.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida” gi 2021-yil 19-may PQ-5117-sonli Qarori.

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

3. Horwitz, E. (1999). Cultural and situational influences on foreign language learners’ beliefs about language learning: A review of Balli studies. 557-576 .
4. Nikolov, M., & Mihaljevic Djigunovic, J. (2006). Recent research on age, second language acquisition, and early foreign language learning. Annual Review of applied Linguistics, 234-260.